



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 22-may

VII-10-68-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 24-fevral kungi “Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-101-V-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 24-fevraldagi “Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-101-V-sonli qarorini ijrosi ta‘minlash hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, o‘ninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 24-fevral kungi “Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-101-V-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyatining tuzilmasi 1-ilovaga, Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyati xodimlarining mehnatiga haq to‘lashning yagona tarif setkasi bo‘yicha razryadi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining mazkur qarori bilan kotibiyat xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish shartlari tegishligiga viloyat, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimligi xodimlari mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish shartlariga tenglashtirilganligi, shuningdek, ularning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida mahalliy budjetning qo‘shimcha va orttirilgan manbalari hisobidan lavozim maoshlariga belgilanadigan ustamalar uchun ham bir xil me‘yorlar tatbiq etilishi inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyati mudiri M.Teshayevga:

-kotibiyat xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, ularga mehnat ta‘tillari va qonunchilikda belgilangan boshqa ta‘tillar berish, qo‘shimcha ustamalar to‘lashga oid farmoyishlar qabul qilinganda ushbu farmoyish nusxalarini o‘sha kunning o‘zida;

-kotibiyat xodimlariga ish haqi to'lovlarini hisoblash uchun shakllantiriladigan har oylik tabellarni o'z vaqtida xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi kotibiyatiga taqdim etib borilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining 2024-yil 2-dekabrdagi VII-2-010-7-96-K/24-son qarorining 2-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri M.Teshayev zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.


Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 22-maydagi
VII-10-68-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi kotibiyatining
TUZILMASI**



Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 22-maydagi
VII-10-68-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi kotibiyati xodimlarining
mehnatiga haq to'lashning Yagona tarif setkasi bo'yicha**

RAZRYADLARI

№	Lavozim nomi	Razryadlar
1	Kotibiyat mudiri	13
2	Bosh mutaxassis	11

Izoh: tarif stavkasi miqdorini (lavozim maoshini) belgilash uchun tarif koeffitsiyenti mehnatga haq to'lashning qonunchilikda belgilangan eng kam miqdoriga ko'paytiriladi. Tarif koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.